



AMIR OLIMXON HUKMRONLIGINING DASTLABKI DAVRIDA MAKTAB TA'LIM TIZIMI

Zaripova Saidabonu

BuxDU, Tarix ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Umarov Baxtishod

Ilmiy rahbar, BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi
kafedrası o'qituvchisi, t.f.f.d.(PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19651249>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-aprel 2026 yil

Ma'qullandi: 14-aprel 2026 yil

Nashr qilindi: 16-aprel 2026 yil

KEY WORDS

Amir Olimxon, Buxoro amirligi, jadidchilik, ta'lim islohoti, yangi usul maktablari, Usmonxo'ja, Homidxo'ja, Fayzulla Xo'jayev

ABSTRACT

Ushbu maqolada Amir Olimxon hukmronligining dastlabki davrida Buxoro amirligida maktab ta'lim tizimida yuz bergan o'zgarishlar tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor davlat tomonidan amalga oshirilgan ta'lim siyosati, xususan 1911-yildagi farmon asosida olib borilgan tartibga solish choralari hamda jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari faoliyatiga qaratiladi. Tadqiqotda yangi maktablarning o'quv jarayoni, moddiy sharoiti va o'qitish metodikasi yoritilib, Usmonxo'ja, Homidxo'ja Mehriy, Fayzulla Xo'jayev kabi jadid ziyolilarining bu jarayondagi o'rni ko'rsatib beriladi. Shuningdek, ta'lim islohotlarining Buxoro amirligi hududlari bo'ylab keng yoyilishi va jamiyat hayotiga ta'siri ham tahlil etiladi.

XX asr boshlarida Buxoro amirligi ijtimoiy va siyosiy jihatdan muhim o'zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, Amir Olimxon hokimiyat tepasiga kelganidan so'ng birinchilardan bo'lib, ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratdi. Chunki jamiyatning rivojlanishi ko'p jihatdan aynan ta'lim tizimiga bog'liq edi. Bu davrda Buxoroda ikki xil ta'lim yo'nalishi yonma-yon mavjud edi: bir tomondan, eski an'anaviy maktab va madrasalar faoliyat yuritgan bo'lsa, ikkinchi tomondan jadidlar tomonidan yangi usuldagi maktablar ochila boshladi. Bu yangi maktablar o'qitish uslubi, dars tashkil etilishi va fanlar tarkibi jihatidan ancha zamonaviy bo'lib, qisqa vaqt ichida xalq orasida mashhurlikka erishdi.

Shu sababli, mazkur mavzuni o'rganish Buxoro amirligida ta'lim tizimi qanday o'zgarganini, yangi fikr va g'oyalar qanday kirib kelganini tushunish uchun muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada aynan Amir Olimxon hukmronligining dastlabki davrida maktab ta'lim tizimida yuz bergan o'zgarishlar yoritiladi.

Tahlil va natijalar. Amir Olimxon otasi Abdulahadxon vafotidan so'ng 1910-yilda Buxoro taxtiga o'tirgach, davlat boshqaruvida muayyan o'zgarishlarni amalga oshirishga harakat qildi. Bu borada ijtimoiy hayotning asosini tashkil qiluvchi ta'lim tizimini tartibga solish va takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratish masalasi ko'zga tashlanadi. Bu sohada olib borilgan chora-tadbirlar davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, ularni amalga oshirish uchun zarur va yuqori martabali mansabdor shaxslar jalb etilishga urinishlar qilindi.

1911-yil mart oyida e'lon qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi farmon ijtimoiy islohotlarning muhim qonuniy asosi bo'ldi. Farmonga muvofiq, madrasalarda o'quv jarayonini qayta ko'rib

chiqish, xususan, turli hoshiyaviy matnlarni o'qitishni cheklash hamda tafsir va hadis fanlarini rasmiy o'quv predmetlari sifatida joriy etish belgilandi. Shuningdek, vaqf mablag'lari hisobidan shaharning turli hududlarida yangi maktablar ochish, ularga malakali muallimlarni tayinlash kabi vazifalar ham ko'zda tutilgan.

Farmonda muallimlarga qo'yiladigan talablar ham aniq belgilab berilgan bo'lib, ular yetarli darajada bilimli, xushxat hamda ravon qiroat qila oladigan bo'lishi lozim edi. Bundan tashqari, maktab o'qituvchilariga davlat xazinasidan yillik 120 so'm miqdorida maosh tayinlash, o'quvchilardan ta'lim uchun to'lov undirmaslik, shuningdek, maktablar faoliyatini nazorat qilish maqsadida maxsus nozir lavozimini joriy etish va uning har oy amirga hisobot berib borishi kabi tartiblar ham joriy qilindi. Fikrimizcha, bu chora-tadbirlar ta'lim tizimini to'liq nazorat ostiga olish, uning sifatini oshirish hamda ijtimoiy adolat tamoyillarini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ular Buxoro amirligida ta'lim sohasini tartibga solish yo'lidagi muhim bosqichlardan biri sifatida baholanishi mumkin.

1910-yilda Buxoro hududida 350 ga yaqin boshlang'ich maktab faoliyat yuritgan. Bu maktablarda o'quvchilar soni o'rtacha 10 nafardan 50–60 nafargacha bo'lib, o'g'il bolalar maktablarida o'rtacha 30–40 nafar o'quvchi tahsil olgan. Qizlar maktablarida esa o'quvchilar soni nisbatan kam bo'lib, ularning ulushi o'g'il bolalar soniga nisbatan taxminan 25–30 foizni tashkil etgan.

Buxoro amirligida boshlang'ich ta'lim tizimiga oid me'yorlarga ko'ra, maktablarga o'quvchilarni qabul qilish yoshi odatda 5 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan. Maktab ta'limining davomiyligi esa 4 yildan 10 yilgacha o'zgarib, bu ko'rsatkich muayyan ijtimoiy va tashkiliy omillarga bog'liq holda shakllangan. Abdurauf Fitrat o'z asarlarida maktablardagi o'rtacha ta'lim muddati 7–10 yilni tashkil etganini qayd etadi, bu esa an'anaviy ta'lim tizimining nisbatan barqaror va uzoq muddatli xarakterga ega bo'lganini ko'rsatadi. O'quv jarayonida kun tartibi diniy vaqt me'yorlariga moslashtirilgan bo'lib, darslar tongda quyosh chiqishidan boshlab asr namozigacha davom etgan, juma va diniy bayram kunlari esa dam olish kunlari sifatida belgilangan.

Amir Olimxon tashabbusi bilan 1913-yilda Buxoro shahrida yangi madrasa bunyod etilib, unda diniy va dunyoviy fanlar integratsiyasiga e'tibor qaratilgan o'quv dasturi joriy etildi. Xususan, tafsir, hadis, kalom, fiqh, usuli fiqh kabi an'anaviy diniy fanlar bilan bir qatorda hisob, tajvid va tarix kabi fanlarni o'qitish belgilandi. Bu holat ta'lim mazmunini kengaytirishga qaratilgan muhim qadamlardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Shuningdek, 1913-yil sentabr oyining boshlarida amir topshirig'iga muvofiq Buxoro shahrida yangi usuldagi maktab binosi qurilishi boshlandi. Mazkur maktab uch asosiy xonadan yozish, hisob va qiroat xonalaridan iborat bo'lib, uning qurilish jarayonida an'anaviy diniy elita vakillarining ham ishtiroki kuzatiladi: xususan, dastlabki g'ishtni qozikalon tomonidan qo'yilishi bu jarayonning ramziy va siyosiy ahamiyatini ko'rsatadi.

1913-yil bahori Buxoro ta'lim tizimi tarixida muhim burilish davri sifatida tavsiflanadi. Aynan shu davrda ta'lim sohasidagi yangilanish harakatlari jadid ziyolilari faoliyati bilan uzviy bog'liq holda kuchayadi. Ularning aksariyati xorijda, xususan Istanbul shahrida tahsil olib qaytgan bo'lib, zamonaviy dunyoqarash va islohotchilik g'oyalarini ilgari surgan.

Jadidchilik harakatining yetakchi namoyondalaridan biri Usmonxo'ja bo'lib, u 1878-yil 23-oktyabrda Buxoroda savdogar oilasida tug'ilgan. Dastlab mahalliy madrasada tahsil olgan Usmonxo'ja 1908–1912-yillarda Istanbulda o'qib, zamonaviy bilim va qarashlarni egallagan.

Shuningdek, Homidxo'ja Mehriy Buxorodagi jadidchilik harakati hamda Yosh buxoroliklar tashkilotining faol vakillaridan biri sifatida ta'lim islohotlari jarayonida muhim o'rin tutgan.

Fayzulla Xo'jayev ham jadidchilik harakatining eng faol va ta'sirchan vakillaridan biri bo'lib, u 1896-yil 1-iyulda Buxoroda tug'ilgan. U dastlab madrasa ta'limini olgan, so'ngra 1907–1912-yillarda Moskva shahrida xususiy muallimlar qo'lida tahsilini davom ettirgan. Uning faoliyatida muhim jihatlardan biri shundaki, u otasidan meros qolgan moddiy resurslarni Buxoroda jadid maktablarini tashkil etish va rivojlantirishga yo'naltirgan.

1913-yil bahorida Istanbulda tahsil olayotgan Usmonxo'ja va Homidxo'ja Mehriyning Buxoroga qaytishi mahalliy ta'lim tizimida yangi bosqichni boshlab berdi. Usmonxo'ja Buxoroga qaytgach, dastlab Latifxo'ja xonadonida xususiy maktab tashkil etib, o'quv jarayonini tor ijtimoiy doira — asosan qarindosh-urug'lari o'rtasida yo'lga qo'ydi. Mazkur muhitda Fayzulla Xo'jayev ham ta'lim olib, aynan shu maktab orqali jadidchilik g'oyalari va islohotchilik qarashlari bilan bevosita tanishdi. Uning rus va nemis tillarini bilishi, keng dunyoqarashi va zamonaviy bilimlarga ochiqligi ushbu g'oyalarni qabul qilishida muhim omil bo'ldi. Shu tariqa, maktab nafaqat ta'lim maskani, balki yangi ijtimoiy-siyosiy tafakkur shakllanadigan intellektual maydon vazifasini ham bajargan.

1913-yil yozida Usmonxo'ja faoliyatini kengaytirib, Gavkushon hovuzi yaqinidagi imoratni ijaraga olib, moddiy-texnik jihatdan ta'minlangan yangi usuldagi maktab tashkil etdi. Unda jadid pedagogikasi asosida tizimli o'quv jarayoni yo'lga qo'yilib, yordamchi o'qituvchilar jalb etildi. Shu bilan bir qatorda, Homidxo'ja ham o'z xonadonini qayta ta'mirlab, yangi usuldagi maktab faoliyatini yo'lga qo'ydi. Bu holat jadid ziyolilari tomonidan ta'lim sohasida parallel tashabbuslarning shakllanganini ko'rsatadi.

Mazkur davrda boshqa mahalliy tashabbuslar ham kuzatiladi. Xususan, Mullavafo ismli mudarris tomonidan Poyostona guzarida rus va an'anaviy musulmon ta'limini uyg'unlashtirgan maktab ochilgan. Shuningdek, Morkushda va Mukammaliddin Maxdum xonadonida ham o'quv maskanlari faoliyat yuritgan. Xiyobon guzarida esa Mirzo Ismoilning ukasi tomonidan yana bir maktab tashkil etilgan. Ushbu maktablarning muhim jihati shundaki, ular faqat bolalar ta'limi bilan cheklanib qolmay, balki kechki mashg'ulotlar orqali savodsiz yoki chala savodli kattalarni ham qamrab olgan. Bu yerda xat-savod, hisob va geografiya kabi fanlar o'qitilgan bo'lib, ta'limning ijtimoiy qamrovi kengayganini ko'rsatadi.

Demak, Buxoroda jadidchilik harakati doirasida ta'lim tizimining quyi darajalaridan boshlab yangilanishlarni amalga oshirish uchun qilinayotgan harakatlar ayni shu davrda kuchaygan. Ya'ni, islohotlar faqat davlat tashabbusi bilan emas, balki ta'siri kuchli davlat amaldorlari va boylar orqali ham amalga oshirilgan.

Buxoro jadidlarining ta'lim sohasidagi islohotlari faqat markaz doirasida cheklanib qolmay, qisqa muddat ichida amirlikning turli hududlariga keng yoyildi va mintaqaviy darajada institutsional tus ola boshladi. Ushbu jarayon mahalliy ziyolilar, amaldorlar hamda ma'rifatparvar shaxslar tashabbusi bilan amalga oshirilgani bilan xarakterlanadi.

Xususan, Shahrisabz hududida jadid maktablarining shakllanishi mahalliy ma'rifatparvar Islomqul To'qsabo faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. U o'z xonadonida yangi usuldagi maktab tashkil etib, uning moddiy-texnik ta'minotini to'liq o'z zimmasiga olgan. Ta'lim sifatini oshirish maqsadida esa Samarqand va Toshkent kabi mintaqaviy ma'rifiy markazlardan malakali muallimlarni jalb qilgan.

Qorako'l viloyatida esa jadid maktablarining tashkil etilishi mahalliy boshqaruv vakillari va diniy elita hamkorligi natijasida yuzaga kelgan. Arxiv manbalariga ko'ra, amlokdor G'ulom Qodir hamda qozi Akram Maxdum tashabbusi bilan bu hududda yangi usuldagi ta'lim maskanlari barpo etilgan.

G'ijduvon va unga tutash hududlarda jadidchilik harakati nisbatan kollegial va tashabbuskor yoshlar guruhlarini orqali rivojlandi. Xususan, Muhammad Azim boshchiligidagi yoshlar ta'lim tizimini yangilash maqsadida maktablar ochib, o'quv metodikasini takomillashtirish uchun Rossiyadan tatar muallimlarini jalb etganlar. Bu esa jadid ta'limining transregional aloqalar orqali boyib borganini ko'rsatadi.

Amirlikning nisbatan chekka hududlaridan biri bo'lgan Kerkida ham jadid maktablari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu yerda Qori Yo'ldosh Po'lat o'g'li kabi ilg'or qarashli yoshlar tomonidan Kiyikchi qishlog'ida maktablar ochilib, ular qoshida kutubxona va qiroatxonalar tashkil etilgan. Ushbu muassasalar ta'lim berish bilan bir qatorda aholining ijtimoiy-siyosiy ongini oshirishga xizmat qiluvchi madaniy markazlar sifatida ham faoliyat yuritgan.

Yangi usuldagi maktablar eski maktablardan ancha farq qilgan. Ularning sinfxonalarida partalar, yozuv taxtasi, geografik xaritalar bo'lgan, o'qituvchi uchun esa alohida stol-stul ajratilgan. Bu esa darslarning ancha tartibli va tushunarli o'tishiga yordam bergan. Odatda bunday maktablarda bolalar 2-3 yil davomida o'qigan.

Bu maktablarda o'qish ham ma'lum qoidalarga asoslangan. Masalan, bir sinfdan 30 nafardan ortiq bola bo'lmasligi kerak edi. O'quvchilar yiliga ikki marta yoz boshida va qish boshida qabul qilingan. Qancha bola qabul qilinishidan qat'i nazar, ular bitta sinf qilib o'qitilgan. Har bir o'qituvchi bir vaqtning o'zida 3-4 sinfga dars bergan. Darslar orasida 10 daqiqalik tanaffuslar bo'lgan, o'quv yili esa 10 oy davom etib, yozning issiq paytida ta'til berilgan.

Sadriddin Ayniy yozishicha, 1914-yilga kelib Buxorodagi yangi usul maktablariga qiziqish juda kuchayib ketgan. Hatto ba'zi maktablarda joy yetishmagan. Shu sababli Usmonxo'ja o'z maktabini kattaroq joyga ko'chirishga majbur bo'lgan. O'sha paytda uning maktabida taxminan 200 nafar o'quvchi bo'lgan. Homidxo'ja Mehriy maktabida 100 nafar, Mukammaliddin Maxdum maktabida 50 nafar, Mullavafo maktabida 80 nafar o'quvchi o'qigan. Markashada 150 nafar, Xiyobonda esa 40-50 nafar bola ta'lim olgan.

Xulosa. Amir Olimxon hukmronligining dastlabki davrida Buxoro amirligida maktab ta'lim tizimi murakkab, ammo serharakat o'zgarishlar bosqichini boshdan kechirdi. Bir tomondan, amirlik tomonidan ta'limni tartibga solish, muallimlar faoliyatini nazorat qilish va ularni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan choralar ko'rildi; ikkinchi tomondan esa jadid ziyolilari tashabbusi bilan yangi usuldagi maktablar keng yoyilib, ta'lim mazmuni va shakliga yangicha ruh olib kirdi.

Aynan shu ikki yo'nalish o'zaro kesishgan holda Buxoro ta'lim tizimida sifat jihatidan yangi bosqichni shakllantirdi. Bu jarayon qisqa muddat ichida maktablarning tuzilmasi, o'qitish metodikasi hamda o'quvchilar tarkibida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Shu nuqtai nazardan, Amir Olimxon davrining ilk yillari Buxoro maktab ta'lim tizimi tarixida burilish davri sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajabov Q. O'zbekiston XX asrda. 1-jild. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2024.
2. "Buxoro" // Tarjimon. 1911-yil 18-mart. – №12. ("Vaqt" gazetasidan olingan).
3. Rajabov Q. So'nggi mang'it hukmdori // Buxoro mavjlari. – 2007.

4. Bobojonova F. Buxoro amirligida ta'lim tizimi (XIX asr oxiri – XX asr boshlarida). – Toshkent: Adib nashriyoti, 2014. - 128 b.
5. Sadridin Ayniy, Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, M., 1926.
6. Jadid.uz
7. Ziyo.uz

